

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

TILSHUNOSLIKDA KONSEPT NAZARIYASI VA UNING LINGVOKOGNITIV TALQINI

Matsolayeva Surayyo Quvondiq qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, stajyor o'qituvchisi.

e-mail: matsolayevasurayyo@gmail.com .ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-1646-4495>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada zamonaviy antropotsentrik tilshunoslikning markaziy kategoriyalaridan biri bo'lmish "konsept" tushunchasining nazariy-metodologik talqinlari tadqiq etiladi. Tadqiqotda ushbu atamaning fanga kirib kelishi, uning lingvokognitiv va lingvomadaniy maqomga ega bo'lish jarayoni hamda yetakchi tilshunos olimlarning ilmiy yondashuvlari qiyosiy-tahliliy o'rganilgan. Tahlillar natijasida konseptning shunchaki mantiqiy tushuncha emas, balki til, ong va madaniyat tutashuvida shakllanuvchi murakkab mental-lisoniy tuzilma ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Antropotsentrik tilshunoslik, kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya, konsept, etnik madaniyat, kognitiv yondashuv, lisoniy dunyo manzarasi.

ТЕОРИЯ КОНЦЕПТА В ЯЗЫКОЗНАНИИ И ЕЁ ЛИНГВОКОГНИТИВНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Мацולהва Сурайё Кувондик кизи

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни, преподаватель-стажёр.

Аннотация.

В данной статье исследуются теоретико-методологические интерпретации понятия «концепт», являющегося одной из центральных категорий современной антропоцентрической лингвистики. В исследовании сравнительно-аналитическим методом изучены история возникновения данного термина, процесс приобретения им лингвokognитивного и лингвокультурного статуса, а также научные подходы ведущих ученых-лингвистов. В результате анализа доказано, что концепт представляет собой не просто логическое понятие, а сложное ментально-языковое образование, формирующееся на стыке языка, сознания и культуры.

Ключевые слова: Антропоцентрическая лингвистика, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, концепт, этническая культура, когнитивный подход, языковая картина мира.

CONCEPT THEORY IN LINGUISTICS AND ITS LINGUOCOGNITIVE INTERPRETATION

Matsolayeva Surayyo Quvondiq qizi

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, Trainee Lecturer.

Abstract.

This article examines the theoretical and methodological interpretations of the concept, which is one of the central categories of modern anthropocentric linguistics. The study employs a comparative-analytical approach to investigate the origin of the term, its evolution into a linguo-cognitive and linguo-cultural status, and the scientific perspectives of leading linguists. The analysis demonstrates that a concept is not merely a logical notion, but a complex mental-linguistic formation shaped at the intersection of language, cognition, and culture.

Keywords: Anthropocentric linguistics, cognitive linguistics, linguoculturology, concept, ethnic culture, cognitive approach, linguistic picture of the world.

Kirish. Hozirgi zamon tilshunosligida lisoniy hodisalarni faqat ichki tizim sifatida o'rganish an'anasi o'rnini inson, til va madaniyat aloqadorligini tadqiq etuvchi antropotsentrik yondashuv egalladi. Ma'lumki, kognitiv lingvistika hamda lingvokulturologiya yo'nalishlarining shakllanishi bevosita inson omili bilan bog'liqdir. Ushbu zamonaviy sohalarining asosi va markaziy tushunchasi sifatida esa "konsept" (concept) termini maydonga keldi.

Tarixiy jihatdan olib qargalanda, "konsept" atamasining ildizlari antik davrga, xususan, Aristotelning "Konseptning klassik nazariyasi"ga borib taqaladi [Nemickiene, 2011]. Bugungi kunda ushbu tushuncha falsafa, psixologiya, metafizika, kognitiv fanlar va hatto sun'iy intellekt kabi ko'plab sohalarida keng tadqiq etib kelinmoqda va har bir fanning o'ziga xos

nazariy qarashlari mavjud. Biroq aynan lingvistik nuqtai nazardan yondashilganda, konsept shunchaki mavhum mantiqiy tushuncha emas, balki til egalarining ongi, milliy dunyoqarashi va madaniyatini o'zida moddiylashtiruvchi o'ziga xos lisoniy-mental birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida "konsept" tushunchasi e'tirof etilib, insonning olam haqidagi bilimlari, tajribalari va milliy-madaniy qarashlarini ifodalovchi mental birlik sifatida talqin qilinadi. Hozirda tilshunoslikda "konsept" atamasiga oid turli xil ta'riflar mavjud. Jumladan, kognitiv atamalar lug'atida ushbu termin (lotincha *conceptus*, *conceptum* – "tushuncha") "xotiraning operativ mazmun birligi, aqliy leksika, miyaning konseptual tizimi hamda inson psixikasida aks etgan olam manzarasining asosiy birligi" sifatida ta'riflanadi. Mazkur ta'rif konseptning inson tafakkuri va kognitiv faoliyatidagi muhim o'rnini ko'rsatadi.

Aqliy leksika esa so'zlar va ularga ekvivalent bo'lgan til birliklari haqidagi bilimlarni insonning til qobiliyatida saqlovchi hamda ularni nutq faoliyatida faollashtiruvchi murakkab kognitiv tizim hisoblanadi. Demak, konsept inson ongida jamlangan bilimlar, tajribalar va tasavvurlarni tizimlashtiruvchi hamda ularni til vositasida ifodalash imkonini beruvchi asosiy mental birliklardan biridir [1, 97–99].

Biroq zamonaviy tilshunoslikda konsept bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilayotgan bo'lsa-da, "konsept" hodisasining lisoniy-kognitiv hamda lingvomadaniy tabiatini belgilash va uning tarkibiy, ya'ni yadro-periferik tuzilishini umumlashtirishda turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Konseptga berilgan ta'rif va talqinlarning xilma-xilligi ushbu mental birlikning til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi o'rnini yaxlit va tizimli anglashda muayyan nazariy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Ushbu muammoning yechimi sifatida mazkur maqolada konsept hodisasiga jahon va milliy tilshunoslikda berilgan nazariy qarashlarni tizimlashtirish, konseptning kognitiv va lingvomadaniy maqomini aniqlashtirish hamda uning yadro-periferik va tarkibiy, ya'ni tushunchaviy, obrazli va qadriyatli strukturasini nazariy jihatdan asoslab berish maqsadi qo'yildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi bosqichida "konsept" terminining nazariy talqini hamda uning lisoniy tabiatini yoritishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar yaratilgan bo'lib, ushbu atamaning fanga kirib kelishi hamda lisoniy-kognitiv maqom kasb etishi bir qator soha olimlari va tilshunoslarning izchil ilmiy izlanishlari natijasidir. Shuni aytib o'tish joizki, rus lingvistikasida "konsept" termini (N.D. Arutyunova, S.A. Askoldov-Alekseyev, D.S. Lixachev, Y.S. Stepanov, V.P. Neroznak, S.X. Lyapin) bir nechta boshqa terminlar — "lingvokulturema" (V.V. Vorobyev), "mifologema" (M. Lexteenmyaki, V.N. Bazilyev), "logoepistema" (E.M. Vereshagin, V.G. Kostomarov, N.D. Burvikova) bilan raqobatlashib, o'zining ishlatilish darajasi tufayli boshqa barcha terminlardan ustun chiqdi (2, 41). S.G. Vorkachev, shuningdek, "konseptning lingvomadaniy o'ziga xoslik bilan ajralib turadigan aqliy shakllanish sifatida belgilanishi lingvistik bilimlarning antropotsentrik paradigmasini shakllantirishdagi tabiiy qadamdir", deya ta'kidlab o'tadi [3, 67].

O'zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigmaning shakllanishi va konsept tushunchasining milliy-lisoniy xususiyatlarini tadqiq etishda bir qator mahalliy olimlarning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Sh. Safarov o'zbek tilshunosligida kognitiv lingvistikaning nazariy-metodologik asoslarini yaratib, konseptning inson tafakkuridagi o'rni va tildagi aksini chuqur tahlil qilgan [5, 92]. N. Mahmudov hamda A. Ashurov o'z tadqiqotlarida konseptning lingvokulturologik tabiatiga e'tibor qaratib, milliy madaniyat, mentalitet va lisoniy birliklar (maqol, matn, frazeologizm) o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berdilar [6]. D. Xudoyberganova esa matnning konseptual tahlili va tildagi dunyo lisoniy manzarasini o'rganish bo'yicha nazariy qarashlarni ilgari surdi [7, 136].

Tilshunoslikda konsept hodisasini anglash va tahlil qilish, asosan, ikki yirik ilmiy yo'nalish, ya'ni lingvokognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar doirasida amalga oshiriladi. Kognitiv yondashuvda konsept insondagi bilim va tajribalarni saqlovchi mental birlik deb qaraladi. E.S. Kubryakova ta'rifiga ko'ra, konsept — "bizning ongimizning aqliy yoki psixik resurslari birligi va inson bilimi va tajribasini aks ettiruvchi axborot tuzilmasi; xotiraning operativ mazmun birligi, aqliy leksika, tilning konseptual tizimi va inson psixikasida aks ettirilgan dunyoning butun manzarasidir" [8, 90]. Lingvomadaniy yondashuv esa konseptni shunchaki mental tuzilma emas, balki madaniyatning tayanch birligi va milliy xotira elementi sifatida talqin qiladi. Konseptning shakllanish mexanizmi haqida gapirganda, N.N. Boldirev uning ko'p qirrali kognitiv manbalarga ega ekanligini ta'kidlaydi. Olimning e'tirofi etishicha, konseptning shakllanishi bilishning barcha shakllari — "sezgi tajribasi, obyektiv-amaliy faoliyat, aqliy, eksperimental-kognitiv va nazariy-kognitiv faoliyat hamda verbal va noverbal muloqot" asosida kechadi [9, 43].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda "konsept" hodisasining lisoniy-kognitiv va lingvomadaniy tabiatini har taraflama va tizimli yoritib berish uchun quyidagi metodologik poydevor, tadqiqot usullari hamda manbalar bazasidan foydalanildi:

2.1. Metodologik poydevor. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya sohasining yetakchi vakillari — V.I. Karasik, V.A. Maslova, Z.D. Popova, I.A. Sternin, M.V. Pimenova hamda S.G. Vorkachevlarning konseptual nazariyalari va modellashirish prinsiplari tashkil etadi. Tadqiqotda antropotsentrik paradigma hamda integratsiyalashgan yondashuv (til, ong va madaniyatning uchlik birligi) yetakchi ilmiy tamoyil sifatida qabul qilindi.

2.2. Tadqiqot usullari. Maqolada qo'yilgan ilmiy muammo va maqsadlarga erishish uchun quyidagi xususiy va umumilmiy metodlar kompleksi qo'llanildi:

Qiyosiy-tahliliy metod (Comparative-analytical method): kognitiv va lingvomadaniy yo'nalishdagi olimlarning "konsept" hodisasiga bergan ta'riflari, yondashuvlari hamda ushbu yo'nalishlarning tadqiqot vektorlarini (ongdan madaniyatga va madaniyatdan ongga) o'zaro cho'g'ishtirish va umumlashtirish uchun foydalanildi.

Kognitiv-semantik va lingvokulturologik tahlil usuli: konseptning faqat mantiqiy yoki lisoniy birlik emas, balki

inson psixikasida saqlanuvchi bilimlar “kvanti” hamda etnik-madaniy qadriyatlarning in’ikosi ekanligini ochib berishda ishlatildi.

Komponentli va strukturaviy-modellashtirish usuli (Structural modeling): V.I. Karasik modeli bo’yicha konseptning uch o’lchovli strukturasi (konseptual, obrazli va ahamiyatlilik/qadriyatli) hamda Z.D. Popova va I.A. Sternin yondashuvi bo’yicha uning yadro-periferik tashkil etilishini nazariy modellashtirishda qo’llanildi.

Klassifikatsiya va taksonomiya usuli: tilshunoslikda mavjud bo’lgan asosiy konseptual sohalarni (shaxs, dunyo, tabiat, axloqiy va emotsional kategoriyalar va boshqalar) guruhlash hamda kognitiv xaritasini tuzish uchun ishlatildi.

Xulosa. Shunday qilib, zamonaviy antropotsentrik tilshunoslikda “konsept” atamasining ko’plab nazariy talqinlari va yondashuvlari shakllangan bo’lsa-da, ularning barchasi uchun umumiy va birlashtiruvchi g’oya — til, ong va madaniyatning uzviy bog’liqligidir. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, konsept faqatgina neytral mantiqiy tushuncha yoki so’z ma’nosi emas, balki insonning olam haqidagi bilimlarini tizimlashtiruvchi hamda milliy dunyo manzarasini o’zida aks ettiruvchi murakkab mental-lisoniy birlikdir.

Nazariy manbalar tahlili shuni isbotladiki, konseptual hodisani o’rganishda lingvokognitiv (ongdan madaniyatga) va lingvomadaniy (madaniyatdan onnga) yondashuvlar bir-birini to’ldirib keladi. Konseptning tushunchaviy, obrazli va, ayniqsa, qadriyatli (aksiologik) komponentlardan tashkil topgan uch o’lchovli tuzilishi uning inson psixikasi va jamiyat hayotidagi o’ziga xos o’rnini belgilaydi.

Demak, konsept inson ongidan idrok etilgan bilim va tajribalarni tizimlashtiruvchi hamda ularni lisoniy vositalar orqali verbalizatsiya qiluvchi tayanch kognitiv tizim hisoblanadi. U nafaqat mavjud lisoniy borliqni deskriptiv tavsiflash funksiyasini bajaradi, balki shaxs va jamiyatning milliy-madaniy eksplikatsiyaga ega bo’lgan kognitiv-metodologik tafakkur modelini ham belgilaydi hamda shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кубрякова Е. С. *Краткий словарь когнитивных терминов*. – Москва: Филологический факультет МГУ им. М. В. Ломоносова, 1997. – С. 245.
2. Воркачев С. Г. К вопросу о лингвокультурном концепте // *Язык, сознание, коммуникация*. – 2004. – Вып. 27. – С. 39–46.
3. Воркачев С. Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // *Филологические науки*. – 2001. – № 1. – С. 64–72.
4. Nemickienė Ž. Concept in Modern Linguistics: The Component of the Concept “Good”. – 2011.
5. Safarov Sh. *Kognitiv tilshunoslik*. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.
6. Ashurov A. *O’zbek tilida “vaqt” konseptining lingvokulturologik xususiyatlari*: filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2007.
7. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo’llarini izlab... // *O’zbek tili va adabiyoti*. – Toshkent, 2012. – No. 5. – B. 3–16.
8. Xudoyberganova D. *Matnning antropotsentrik tadqiqi*. – Toshkent: Fan, 2013. – 136 b.
9. Кубрякова Е. С., Демьянков В. З., Панкрац Ю. Г., Лузина Л. Г. *Краткий словарь когнитивных терминов*. – Москва: Филологический факультет МГУ им. М. В. Ломоносова, 1996. – С. 90.
10. Болдырев Н. Н. *Когнитивная семантика: Курс лекций по английской филологии*. – Тамбов: Изд-во Тамбовского университета, 2000. – С. 43.